

Tabiat – bebaho kelajagimiz

**2025-YIL
ATROF-MUHITNI
ASRASH VA
"YASHIL"
IQTISODIYOT
YILI**



Tabiat – bebaho kelajagimiz

(kutubxona xodimlariga, kitobxonlarga foydalanish uchun uslubiy qo‘llanma)

502 (078)

T 12

Qo‘shko‘pir tuman Axborot – kutubxona markazi

Axborot bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi: J.Narboyeva

Ma‘sul muharrir: G.Saidova

Tabiat – bebaho kelajagimiz: kutubxona xodimlariga, kitobxonlarga foydalanish uchun uslubiy qo‘llanma / tuzuvchilar G. Saidova, J. Narboyeva, S.Zarifboyeva. - Qo‘shko‘pir tuman Axborot – kutubxona markazi, Qo‘shko‘pir. – 2025. -

502 (078)

T 12

Bugun nafaqat O‘zbekiston, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotganini qayd etdi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Ushbu qo‘llanmada 2025 – yil “Atrof – muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” da qilinayotgan tashabbusli ishlar haqida so‘z yuritiladi. Qo‘llanmani maktab kutubxonachilari va kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

So‘z boshi

Bugun dunyoda iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlari yaqqol sezilmoqda. Buni oldindan ko‘ra bilib, mamlakatimizda ekologik toza iqtisodiyotga o‘tilmoqda.

Oxirgi uch yilda joylarda 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi, 35 ta kichik GES qurildi. Sanoatda “yashil energiya” sertifikat tizimi joriy qilindi. Quyosh panellari o‘rnatgan xonadonlar 60 mingdan oshdi. “Yashil makon” dasturi doirasida daraxtlar ekilib, bog‘lar yaratilayapti. Suvdan tejab-tergab foydalanilayapti.

2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilindi. Bu borada davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilib, bir oy davomida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi. U bilan 11 million fuqaro tanishib, 100 dan ziyod takliflar tanlab olindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tarmoqlari va boshqa vakolatxonalar hamkorlikka tayyorligini bildirdi.

Davlat dasturidagi eng katta yo‘nalishlardan biri energetikadir.

So‘nggi yillardagi jadallik tufayli mamlakatimizning jami quvvatlarida “yashil” energiya ulushi 16 foizga yetdi. Bu yil uni 26 foizga chiqarish rejalashtirilgan. Buning uchun yana 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol stansiyasi, 160 megavattli 5 ta yirik GES va 1,8 gigavattli energiya saqlash quvvatlari ishga tushiriladi. Davlatimiz rahbari resurs tejamkor iqtisodiyot modeliga o‘tish vaqti kelganini ta’kidladi.



**"ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT
DAVLAT DASTURI QABUL QILINDI**

**“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI “ATROF-MUHITNI ASRASH VA
“YASHIL IQTISODIYOT” YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI
TO‘G‘RISIDA**

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og‘ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish maqsadida:

1. “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilansin:

mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash;

o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish;

ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta‘minlash.

Belgilansinki, ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko‘zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o‘tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo‘ladi.

2. 2025-yilda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish borasida:

Parij bitimining talablaridan kelib chiqib, Oʻzbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilishi;

iqlim oʻzgarishiga moslashish, “yashil texnologiya”lar transfertini inobatga olgan holda global miqyosda mamlakatimizning kelgusi 5 yilda issiqxona gazlarini qisqartirish boʻyicha Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC) eʼlon qilinishi;

metan emissiyasini qisqartirish majburiyati doirasida tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohalarida metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanishi;

umumiy quvvati 4,5 GVt boʻlgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati 785 megavatt boʻlgan quyosh panellarini oʻrnatish, quvvati 225 megavatt boʻlgan gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga va jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkazilishi;

yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, “Yashil bino” sertifikatini joriy etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qoʻchqorov hamda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri A. Abduxakimov belgilansin.

3. Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda:

2025-yilda quyosh panellari va geliokollektorlarni tuman va shaharlar kesimida oʻrnatish dasturini;

2025-2026-yillarda respublika hududlarida mikro gidroelektr stansiyalarini qurish dasturini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. “Tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va ishlab chiqarish xarajatlarini 15 — 20 foizgacha qisqartirish maqsadida 2025-yil yakuniga qadar:

yirik strategik korxonalar tomonidan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari asosida korporativ dasturlar ishlab chiqilib, kamida 5 ta yirik sanoat korxonasida ESG milliy hisoboti yoʻlga qoʻyilishi va jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti joriy etilishi;

“Oʻzbekneftgaz” AJ, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Uzbekistan Airports” AJ, “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan ESG reytingi olinishi;

Samarqand va Fargʻona viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosarlari J. Qoʻchqorov, J. Xodjayev va ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri A. Abduxakimov belgilansin.

5. 2025-yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, koʻchalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida:

aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yoʻlaklari boʻyida daraxtlar va oʻsimliklarni ekish orqali “Soyali sayr koʻchalari” tarmogʻi yaratilishi, sohil va daryo boʻylarida 80 ta infratuzilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sogʻlomlashtirish yoʻlaklari qurilishi;

yomgʻir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sugʻorish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirilishi;

“Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bogʻim” loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda butalar ekilishi, “yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari”da quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritgichlardan foydalanilishi;

Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etilishi va Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlar 2,1 million gektarga yetkazilishi;

oʻrmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirilishi hamda ularning ekoturizm, koʻchatchilik va dorivorchilik yoʻnalishlaridagi foydalanilmayotgan zaxiralari aniqlanib, ularning imkoniyatlaridan toʻliq foydalanilishi va aholining daromadlari oshirilishi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududlarida shoʻr va suvsizlikka chidamli oʻsimliklar (galofit) bogʻlari tashkil etilishi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Fargʻona va Toshkent viloyatlarida davlat “in-vitro” laboratoriyalari tashkil etilishi, shuningdek, xususiy “in-vitro” laboratoriyalarini barpo etishga tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni ajratish uchun xalqaro moliya institutlaridan kamida 30 million AQSH dollari miqdorida mablagʻlar jalb etilishi;

jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining tabiatni muhofaza qilish boʻyicha tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash akseleratsiya tizimi joriy etilishi taʼminlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼullar etib tegishincha Bosh vazir oʻrinbosari J. Xodjayev, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri A. Abduxakimov, qishloq xoʻjaligi vaziri I. Abduraxmonov, iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi oʻrinbosari I. Norqulov, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

6. 2025-yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida:

a) aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish orqali mamlakatimizda “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targʻib qilishga qaratilgan “Bir million yashil oila”

umummilliy harakati yo'lga qo'yilsin va aholi orasida targ'ib qilish ishlari tashkil etilsin. Bunda uning asosiy tamoyillari etib quyidagilar belgilansin:

aholi orasida sog'lom turmush tarzi, xususan, tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom ovqatlanish, kunlik yurish va yugurishni targ'ib qilish;

“yashil transportda”, shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag'batlantirish;

plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish;

oziq-ovqat isrofgarchiligining oldini olish;

suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish;

chiqindilarni turlariga qarab saralashni yo'lga qo'yish;

b) tibbiyotning birlamchi bo'g'inida quyidagilarni nazarda tutuvchi transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilsin:

oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning samarali tizimini joriy etish;

ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar faoliyatini markaziy shifoxonalarning maslahat diagnostika poliklinikasi sifatida yo'lga qo'yish;

markazlashgan laboratoriyalar tashkil etish, shifokor qabuliga navbatni to'liq elektron shaklga o'tkazish, shuningdek, davlat tomonidan sanitariya-gigiyena normalariga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirilgan holda stomatologiya xizmatini autsorsing asosida xususiy sektorga berish;

tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, tibbiyot xodimlari mehnat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqib, samaradorlikka erishgan xodimlarning oylik maoshlariga qo'shimcha ustamani joriy etish;

viloyat darajasidagi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini zarur o'rin-joylarni (koyka) yaratgan holda boshqaruv, moliya va tashkiliy jihatdan zamonaviy ko'p tarmoqli klinikalar shaklida qayta tashkil etish;

v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o'quv yilidan:

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi kabi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti etib belgilansin;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida “sirkulyar iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetiga birlashtiriladigan “yashil texnikumlar” faoliyati yo'lga qo'yilsin;

tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishlaridagi davlat oliy ta’lim tashkilotlarida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani va o‘quv dasturlari kiritilsin;

oliy ta’limda grant o‘rinlarini bosqichma-bosqich oshirish hisobiga aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasi 25 mingga yetkazilsin;

“El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi ta’lim dasturlari asosida ta’lim olish uchun stipendiya tanloviga 20 tagacha kvota ajratib borilsin;

respublikaning har bir tumanida (shahrida) bosqichma-bosqich inklyuziv ta’lim talablariga javob beradigan kamida bittadan umumta’lim maktabi faoliyati tashkil etilsin;

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 3,5 ming kambag‘al oilalar farzandlarini tayyorlab, oliy ta’lim tashkilotlariga belgilangan tartibda grant asosida qabul qilish ishlari tashkil etilsin;

g) 2025-yil 1-martga qadar to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning inson salomatligiga foydasini targ‘ib qilishni kuchaytirish dasturi ishlab chiqilsin;

d) 2025-yil 1-avgustga qadar oziq-ovqat xavfsizligi sohasida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilish maqsadida idoralararo yaxlit Milliy axborot platformasi ishlab chiqilsin.

Mazkur bandning so‘zsiz, sifatli va o‘z vaqtida ijrosini ta’minlashga mas’ullar etib tegishincha sog‘liqni saqlash vaziri A. Xudayarov, sport vaziri A. Ikramov, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Zaxidov, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K. Sharipov, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. Abduxakimov, qishloq xo‘jaligi vaziri I. Abduraxmonov belgilansin.

7. Quyidagilar:

Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov, E. Adilov) 2025-yil 1-iyulga qadar tibbiyot va farmatsevtika xodimlari faoliyatini bosqichma-bosqich davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini aniq mexanizmlarni nazarda tutgan holda joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritсин;

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov, E. Adilov) bilan birgalikda 2025-yil 1-noyabrga qadar tibbiy sug‘urta mexanizmlari joriy qilinayotgan hududlarda retsept asosida beriladigan dori vositalarini “elektron retsept” tizimi asosida tayinlash amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

8. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) 2025-yil 1-iyunga qadar “Bir million yashil oila” umummilliy harakati doirasida quyidagilarni nazarda tutuvchi platformani ishga tushirsin:

ekologik tamoyillarni o'zining kundalik hayotiga joriy etishda yuqori ko'rsatkichlarga erishganlarga "Ekofaol fuqaro" maqomini berish hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan banklarda iste'mol kreditini olishda chegirma taqdim etish;

oilaning barcha voyaga yetgan a'zolari "Ekofaol fuqaro" maqomini olganda, ushbu oilaga "yashil oila" maqomini berish hamda ularga har yili ochiq tanlov orqali 14 ta elektromobil berish;

aholisining yarmi "yashil oila" maqomini olgan mahallalarda "Eng toza mahalla" va "Eng yashil mahalla" tanlovlarini o'tkazish va g'olib bo'lgan mahallalar jamg'armasiga mahalla aholisining takliflarini o'rgangan holda mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirishga, xususan yo'llarni ta'mirlash, energotejamkor yoritish uskunalarini o'rnatish, bolalar maydonchasini qurish, "yashil bog'" yaratish va o'rindiqlar o'rnatish, chiqindi yig'ish maydonchalarini qurish, chiqindi qutilari va konteynerlarini o'rnatishga 500 million so'm ajratish.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishincha ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abduxakimov, raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

9. Aholi, ayniqsa yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida 2025-yil 1-maydan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi "Toza qo'llar" dasturi amalga oshirilsin va aholi orasida keng targ'ib qilish ishlari tashkil etilsin:

a) barcha sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalarida:

qo'l yuvish joylarini zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash;

sanitariya-gigiyena xonalarining texnik holatini yaxshilash, yangi qurilayotgan muassasalarda ularni binoning ichki qismida joylashtirish;

yil davomida birinchi navbatda qo'l yuvish va antiseptik vositalarni xarid qilishni nazarda tutish;

b) barcha turdagi jamoat sanitariya-gigiyena xonalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlarini sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash majburiyatini kiritish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov) birinchi darajali mablag' taqsimlovchilarning asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra 2025-yil davomida budjet tashkilotlarida mazkur bandedagi tadbirlar uchun zarur bo'lgan hollarda qo'shimcha mablag'lar ajratsin.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (B. Yusupaliyev) bir oy muddatda ushbu bandeda nazarda tutilgan muassasalarda sanitariya-gigiyena holatini saqlash uchun vositalar ajratish bo'yicha normativlarni qayta ko'rib chiqsin va ularning amalda bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish.

10. Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Sh. Xidoyatov) bilan birgalikda 2025-yil 1-avgustga qadar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ekspertlarini jalb etgan holda respublikaning barcha ijtimoiy soha muassasalarida, shu jumladan, umumiy ovqatlanish nuqtalari va viloyatlararo avtomobil yo'llari bo'yidagi sanitariya-gigiyena nuqtalarida sanitariya-gigiyena tizimini yaxshilash bo'yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

11. Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimini kuchaytirish va bu borada sanitariya qoidalarini ishlab chiqib, me'yorlarni yuqori standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida:

2025-yil 1-iyulga qadar Sanitariya-epidimiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining laboratoriyalarini oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi transyog'larni aniqlash uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash choralari ko'rilsin;

2025-yil 1-avgustga qadar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda transyog'lardan foydalanishning cheklangan miqdorlarini belgilash bo'yicha sanitariya qoidalar va me'yorlari Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirilishi ta'minlansin va ularga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib sog'liqni saqlash vaziri A. Xudayarov belgilansin.

12. 2025-yilda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida:

1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishilishi;

nasos stansiyalarida eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirish, suv resurslari hisobini takomillashtirish orqali nasos stansiyalarining elektr energiya iste'moli 300 mln kVtgacha kamaytirilishi;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilanishi;

sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilishi;

1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi;

ichimlik suv tizimida ma'nan eskirgan 746 ta nasos uskunalari energiya tejamkorlariga almashtirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlar o'rnatilishi;

barcha ichimlik suv ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi;

daryolar, ko'llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishincha suv xo'jaligi vaziri Sh. Xamrayev, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Xidoyatov, energetika vaziri J. Mirzamaxmudov, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abduxakimov belgilansin.

13. Keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar, O'zbekiston ekologik partiyasi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi taklifini inobatga olgan holda:

a) 2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida quyidagi yo'nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish taqiqlansin:

asbest, sement ishlab chiqarish, shlam va shlaklar;

teri-ko'ncilik, parrandachilik fabrikalari;

samaradorligi yuqori bo'lgan chang-gaz tozalash inshootlari bilan jihozlanmagan har qanday turdagi ko'mir yoqish;

qora va rangli metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar bo'lgan oyna, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlash;

xavflilik darajasining I va II sinfiga mansub chiqindilarni qayta ishlash va yoqish korxonalari;

b) 2025-yil yakuniga qadar quyidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlashga barcha kuch va resurslar safarbar etilsin:

aholini sifatli, ekologik toza va arzon yoqilg'i bilan ta'minlagan holda AI — 80 rusumli avtomobil yoqilg'isidan foydalanish va sotishni cheklash;

respublikaning barcha hududlarida joylashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg'i sifatida mazutdan foydalanishni to'liq taqiqlash, bundan avariyaviy yoqilg'i sifatida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligini xabardor qilib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda foydalanish holatlari mustasno;

v) 2025-yil 1-noyabrga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan plastik chiqindilarni qisqartirish bo'yicha quyidagi xalqaro tan olingan mexanizmlarni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilsin:

plastik chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus joylar va uskunalarni o'rnatish orqali yig'ib olish va utilizatsiya qilish yoki utilizatsiya yig'imini to'lash;

plastik qadoqlar yoki plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda import qiluvchilarga nisbatan “taralarni qaytarish”, fuqarolarga chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus uskunalariga topshirilgan har bir plastik idish uchun to‘lov qilish imkoniyatini yaratish kabi majburiyatlar joriy qilish.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Qudratov) hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 2025-yil 1-oktabrga qadar mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan va energiya sarfi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlardagi mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilgan holda Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlaridan bosqichma-bosqich ko‘chirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

14. Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va shaharsozlik faoliyatining ekologiyaga salbiy ta‘sirini ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilgan holda jilovlash maqsadida:

2025-yil 1-avgustdan boshlab texnik jihatdan tartibga solish hujjatlari bo‘lgan ekologik me‘yorlar va qoidalarni qabul qilish tartibi o‘rnatilsin;

2025-yil 1-oktabrdan boshlab energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalari va kimyo sanoatida ekologik normativlarni individual belgilash usuli o‘rniga tarmoq usulini qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

2026-yil 1-yanvardan boshlab respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar tomonidan o‘z faoliyatida Barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro kengashning barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilish standartlarini joriy etish (ISSB) amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov) yetakchi xalqaro va mahalliy ekspertlarni jalb qilgan holda uch oy muddatda atmosfera, yer, yerosti va suv ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan ekologik me‘yor va qoidalarni ishlab chiqish bo‘yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

Bosh vazir o‘rinbosarlari J. Qo‘chqorov, J. Xodjayev atrof-muhitni asrash tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan, cho‘llanishga qarshi kurashish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, suv resurslaridan oqilona foydalanish sohalarida startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Ekologiya jamg‘armasiga xalqaro moliya institutlari va budget mablag‘lari hisobidan 25 milliard so‘m miqdordagi mablag‘lar o‘tkazib berilishini ta‘minlasin.

15. Keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar, ekologiya sohasi ilmiy hamjamiyati takliflarini inobatga olgan holda tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish va yashil hududlarni asrash maqsadida:

2025-yil 1-iyuldan boshlab ko‘p qavatli uylar massivlaridagi tuproq va yashil qoplamali umumiy foydalanishdagi hududlarni o‘zboshimchalik bilan betonlashtirganlik, qurilma va konstruksiyalarni o‘rnatganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytiriladi;

2025-yil 1-avgustdan boshlab pishgan g‘isht ishlab chiqarishdan muqobil texnologiyalardan keng foydalanishga o‘tish maqsadida devorbop materiallardan (penoblok,

gazoblok) keng foydalanuvchi qurilish tashkilotlariga “Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik beriladi;

2026-yil 1-yanvardan boshlab pishgan va xom g‘isht ishlab chiqarishda yer qa‘ridan foydalanish uchun soliq stavkasi 2025-yil uchun belgilangan stavkaga nisbatan 2 baravarga oshirilgan holda qo‘llanadi hamda 2027-yildan bosqichma-bosqich qo‘shimcha ravishda oshiriladi;

2027-yil 1-yanvardan boshlab yer resurslarini muhofaza qilish va tuproqning unumdor qatlami yo‘qolib ketishining oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligiga, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o‘rmon va suv fondi yerlarida tuproq karyerlari faoliyati taqiqlanadi;

ko‘p qavatli turar joylarni loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilishda oqova, yomg‘ir va texnik suvlardan sug‘orishda foydalanish tizimlarini tashkil etish majburiy etib belgilanadi.

16. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov), Energetika vazirligi (J. Mirzamaxmudov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Sh. Xidoyatov), O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A. Jumanazarov), Savdo-sanoat palatasi (D. Vaxabov) ikki oy muddatda energiya samarador materiallarni mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmini oshirish va ulardan keng foydalanish bo‘yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

17. O‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va ularni keyingi avlodga yetkazish borasida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarni yig‘ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o‘simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalarni elektron auksion orqali berish tartibi joriy etilsin. Bunda:

kvotalar Fanlar akademiyasi tomonidan har yili aniqlanadigan o‘simlik zaxirasi asosida shakllantiriladi;

kvota va ruxsatnomalar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan tasdiqlanib, auksionga chiqariladi.

Mazkur bandning so‘zsiz, sifatli va o‘z vaqtida ijrosini ta‘minlashga mas‘ul etib ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. Abduxakimov belgilansin.

18. Atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatish bo‘yicha I va II toifalarga mansub korxonalarning ekologik ishlab chiqarishga o‘tishdagi harakatlarini rag‘batlantirish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan boshlab quyidagi tartib joriy etilsin:

a) birinchi bosqichda — atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalarini o‘rnatgan korxonalarga:

tabiatga zarar yetkazish bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan shakllangan qarzdorlikdan voz kechish;

tabiatga zarar yetkazish bo‘yicha respublika budjetiga yo‘naltiriladigan kompensatsiya to‘lovlarining 50 foizigacha bo‘lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;

b) ikkinchi bosqichda — monitoring stansiyalarini oʻrnatgan korxona kelgusi bir yil davomida chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini oʻrnatganda, tabiatga zarar yetkazish boʻyicha respublika budgetiga yoʻnaltiriladigan kompensatsiya toʻlovlarining 70 foizigacha boʻlgan qismini ikki yil davomida qaytarish belgilansin.

Bunda mazkur bandda nazarda tutilgan imtiyozlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi tomonidan beriladigan xulosa asosida taqdim etiladi;

v) 2025-yil 1-noyabrga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi tomonidan xoʻjalik faoliyatini yurituvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan ekologik zararlarni majburiy sugʻurtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish boʻyicha qonun loyihasi ishlab chiqilsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov ikki oy muddatda respublikada atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, xususan, sanoat korxonalari va issiqxonalarda chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini bosqichma-bosqich oʻrnatish boʻyicha dasturni tasdiqlasin va uning ijro etilishini qatʼiy nazoratga olsin.

19. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlarini “yashil tadbirkor” sifatida eʼtirof etish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi platforma ishga tushirilsin:

a) quyidagi yoʻnalishlarda belgilangan koʻrsatkichlarni bajargan tadbirkorlik subyektlariga “yashil tadbirkor” maqomini berish:

koʻkalamzorlashtirish, jumladan, korxonani “yashil belbogʻ” bilan oʻrash, sugʻorish tizimlarini oʻrnatish, tomchilatish, yomgʻirlatish va konteynerli (qopli) sugʻorish tizimini joriy qilish;

energiya tejamkorligini taʼminlash, jumladan, energiya tejovchi uskunalar va texnologiyalarni joriy qilish;

korxonaning atrof-muhitga taʼsirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqbuzarlik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;

ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish (“7R”) tamoyilini tatbiq etish;

b) “yashil tadbirkor” maqomini olgan tadbirkorlik subyektlariga quyidagi qoʻllab-quvvatlash choralarini qoʻllash:

“Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik berish;

muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etish;

xalqaro bozorlarga chiqish uchun qoʻllab-quvvatlash;

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qoʻshimcha ball berish.

20. Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni ragʻbatlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab

chiqindilar utilizatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil tarif”lar joriy etilsin. Bunda:

tadbirkorlik subyektlari tomonidan chiqindi va biogaz utilizatsiyasi orqali ishlab chiqariladigan hamda tashkilotlarning o‘z hududlarida o‘rnatgan shamol va quyosh elektr qurilmalaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi uchun;

aholining quyoshdan olingan va foydalanishda o‘z ehtiyojidan orttirib, davlatga sotadigan elektr energiyasi uchun imtiyozli tariflar belgilanadi.

21. Iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o‘zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo‘yicha:

a) 2025-yil 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasida “yashil moliyalashtirish” tizimini shakllantirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqilsin;

b) 2025-yildan boshlab quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag‘larini jalb etish choralari ko‘rilsin:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan — bosqichma-bosqich 200 million yevrogacha;

Jahon bankidan — energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million AQSH dollari;

Global yashil o‘shish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko‘magi doirasida — O‘zbekiston-Koreya o‘rtasida “yashil hamkorlik”ni kuchaytirish uchun 6,5 million AQSH dollari;

Jahon bankining “iCRAFT” loyihasi doirasida — 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million AQSH dollari;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan — sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevro;

v) 2025-yil sentabrga qadar “yashil iqtisodiyot” loyihalarini amalga oshirishda shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan milliy “yashil iqtisodiyot” loyihalarini baholash tartibi tatbiq etilsin;

g) 2025-yil noyabrga qadar qiymati 10 million AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni “Source” xalqaro platformasiga kiritish orqali loyihalarining “yashil komponent”lari va barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligini baholash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

d) Yevropa Ittifoqining texnik ko‘magida Buxoro, Namangan, Nukus, Urganch shaharlari va G‘uzor tumanida kam uglerodli rivojlanish bo‘yicha harakatlar rejalari ishlab chiqilishi hamda 10 ta ijtimoiy obyektning energiya samaradorligi oshirilishi ta’minlansin.

Mazkur bandning soʻzsiz, sifatli va oʻz vaqtida ijrosini taʼminlashga masʼul etib Bosh vazir oʻrinbosari J. Qoʻchqorov belgilansin.

22. Belgilansinki, 2025-yilda ekologik barqarorlikni taʼminlovchi hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni taʼminlash borasida:

2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish boʻyicha yangi loyihalarning 15 foizida, 2027-yildan boshlab — 30 foizida, 2030-yildan boshlab — 55 foizida “yashil komponentlar” boʻlishi lozim;

davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan uglerod neytralligiga erishish, iqlim oʻzgarishiga moslashish, atrof-muhitni asrash, yashillik darajasini oshirish va “yashil loyihalar”ni amalga oshirishga qaratilgan “yashillik dasturlari” Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi;

har yili davlat organlari va ijtimoiy obyektlarning atrof-muhitga salbiy taʼsirini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va “yashil texnologiya”larni joriy qilish boʻyicha ekologik reytingi yuritib boriladi.

23. Hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha ishlarni samarali tashkil qilish, hududiy davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida:

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi bilan kelishgan holda ekologiya va “yashil rivojlanish” masalalari boʻyicha konsultantlar xalqaro moliya institutlari grant mablagʻlari hisobidan jalb qilinsin;

2025-yil 1-sentabrdan boshlab tuman (shahar) darajasida ekologik pasportlar va ekologik master rejalar hamda hududlarning ekologik reytingini ishlab chiqish va keng jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti joriy etilsin.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vaziri A. Abduxakimov jalb qilinadigan konsultantlarning faoliyatini muvofiqlashtirishga masʼul etib belgilansin.

24. Quyidagilar:

a) Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi (Q. Kuranbayev):

bir hafta muddatda tuman va shaharlar kesimida 2025-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt koʻchatlarini hamda xonadonlar va ichki koʻchalarga gul va qalamchalarni ekish dasturlari Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

2025-yil bahor-kuz mavsumlarida respublikadagi barcha mahallalarning ichki koʻchalari va aholi xonadonlarida 32 million tup mevali va manzarali daraxtlar, buta koʻchatlarini hamda rayhon, gultoji, atirgul va boshqa gullar, shuningdek, qalamchalarni ekish va parvarishlab borishni;

“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yilning 10-fevraldan 10-martga qadar har bir xonadon, ko‘cha va qabristonlarda obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishni;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Navro‘z bayramiga qadar mahallalar o‘rtasida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilishini ta‘minlasin.

Mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlar Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi, homiylik va xayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin;

b) Bosh prokuratura (Sh. To‘xtaboyev) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (Q. Kuranbayev) bilan birgalikda joylarga chiqqan holda mazkur bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

25. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat va tuman (shahar) hokimlarini lavozimga tasdiqlashda va lavozimdan ozod etishda quyidagi ekologik ko‘rsatkichlarni belgilash bo‘yicha ekologik audit o‘tkazib borilsin:

hududning yashillik va o‘rmonlar bilan qoplanganlik darajasi hamda o‘rmonlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni;

hududdagi daraxtlar soni;

shaharlar va yirik sanoat korxonalarining yashil belbog‘lar bilan o‘ralganlik darajasi;

suv havzalari va daryo o‘zanlaridagi qum va shag‘allar holati;

atmosfera tashlamalar miqdori va havo ifloslanishining darajasi;

atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatish bo‘yicha I va II toifalarga mansub korxonalarining atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalari, chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalari o‘rnatganlik holati;

aholiga chiqindilar bo‘yicha xizmat ko‘rsatishning qamrovi, chiqindi yig‘ish shoxobchalari va konteynerlari bilan ta‘minlanish holati va xizmat ko‘rsatish sifati darajasi.

26. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A. Abduxakimov) bir oy muddatda davlat ekologiya nazorati va tekshiruvni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, uning xodimlarini maxsus texnika va transport vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

27. Davlat budjeti mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanishda parlament nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida Hukumatning Davlat budjetiga doir barcha hisobotlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga Hisob palatasining tashqi audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

28. Bosh vazir o‘rinbosari J.Xodjayev, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. Abduxakimov, iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari I. Norqulov turizm salohiyati yuqori bo‘lgan tog‘li hududlar, suv omborlari va suv havzalari hamda daryo bo‘ylarida “apart-otel”, “kapsula” uylar va shu kabi joylashtirish vositalaridan iborat turizm majmualarini tashkil etishga 500 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish choralari ko‘rsin.

29. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish va aholini doimiy daromad manbalari bilan ta‘minlash maqsadida:

2025-yil 1-martga qadar tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan yer uchastkalari konturlar yaxlitligi va sug‘orish tizimini buzmaganda, 3 gektardan 50 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda, ijarachilarning mustaqilligi va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega ekinlar yetishtirishga asoslangan yangi tizim bo‘yicha auksion savdolari orqali ajratilsin;

tuproq agrokimyoviy tahlillarini o‘tkazish maqsadida 10 ta portativ-mobil laboratoriyani xarid qilish ta‘minlansin;

organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer maydonlari 10 ming gektarga yetkazilsin.

Mazkur bandning ijrosini ta‘minlashga mas‘ul etib qishloq xo‘jaligi vaziri I. Abduraxmonov belgilansin.

30. Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) Adliya vazirligi (A. Tashkulov) bilan birgalikda 2025-yil 1-oktabrdan boshlab davlat xizmatlari ko‘rsatilishida qog‘oz shaklidagi hujjatlar aylanmasining to‘liq elektron shaklga o‘tkazilishini ta‘minlasin.

31. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda — Davlat dasturi) doirasida quyidagilar 1 — 21-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi;

2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati;

2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar;

2025-yilda atrof-muhitni asrash yo‘nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar rejasi;

2025-yilda atrof-muhitni asrash bo‘yicha xalqaro hamkorlik yo‘nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish rejasi;

O‘zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi;

2025-yilda hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini joriy etish rejasi;

2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlarni ekish bo‘yicha reja;

2025-yilda bahor mavsumida mahallalarda xonadonlar va ichki ko‘chalarga gul hamda qalamchalarni ekish bo‘yicha reja.

32. Bosh prokuratura (Sh. Aminov) kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish rejasining ijrosini ta’minlash, shuningdek, quyosh panellari va geliokollektorlar o‘rnatilishida qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya etilishi ustidan qat’iy nazoratni amalga oshirib borsin.

33. Belgilab qo‘yilsinki:

Davlat dasturini so‘zsiz, sifatli va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi hisoblanadi;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida har chorak kesimida tegishli yo‘nalish va hudud bo‘yicha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va zarur normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘z vaqtida va puxta ishlab chiqish uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

34. Quyidagilar:

Adliya vazirligi Hisob palatasi bilan birgalikda Davlat dasturi doirasida yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy tadbirlar rejalari bajarilishini, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishini va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqilishini tizimli monitoring qilib borsin;

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakati Davlat dasturining amalga oshirilishini, shu jumladan, joylarga chiqib, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy o‘rganib borsin va natijalari bo‘yicha har oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin;

davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatining mazkur band ijrosi bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin.

35. Vazirlar Mahkamasi:

bir hafta muddatda mazkur Farmon va u bilan tasdiqlangan Davlat dasturi ijrosini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilsin;

har oy yakuni bo‘yicha Davlat dasturi ijrosi yuzasidan ma’lumotlarni umimlashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib borsin;

har chorak yakuni bo‘yicha Davlat dasturida yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini Vazirlar Mahkamasining Rayosati yig‘ilishida muhokama qilib borsin;

har yarim yilda Davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisobotlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritib borsin.

36. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Djurabayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko‘chimov) boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

Davlat dasturini amalga oshirish natijalari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishdagi yutuqlarni aks ettiradigan tahliliy materiallarning ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning borishi hamda natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlar aholiga tezkorlik bilan yetkazilishini ta’minlasin.

37. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2025-yil 30-yanvar,

PF-16-son

Prezident 2025-yil nega “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot” yili deb nomlanganiga izoh berdi

20-noyabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ustuvor vazifalarni e'lon qilgandan so'ng, 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb nomlashni tavsiya qildi. Davlat rahbari yil uchun tanlangan nomga izoh berib, bu haqda juda ko'p muddat o'ylaganini ta'kidladi.

“Qo'llab-quvvatlasangizlar, 2025-yilni Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili deb e'lon qilsak? Yil nomini shunday qo'yganimizni men juda ko'p o'yladim, tabiatni asrash degan jumla ichida juda katta narsa mujassam”, — dedi prezident.

Shavkat Mirziyoyev har bir huquqiy hujjat yashillikka olib borilsa, uning natijasi yaxshi bo'lishi haqida so'zladi.

“Nima uchun, bir yilni shunga bag'ishlaymiz, qonunlarimizni charxlab, ishlarimizni saranjom qilib olamiz. Hech kim bizga ishonmagan edi: O'zbekiston shamol, quyosh va gidroelektr bo'yicha shunday qilishiga. Yashil iqtisodiyot yili deganda tajriba o'rganamiz. Har bir qaror, qonun, farmonni yashillikka olib borsak, o'ylaymanki, yaxshi bo'ladi”, dedi u.

Yashil iqtisodiyot bo'yicha biz to'qimachilik bo'yicha Yevropa davlatlariga mahsulotimizni sotaymiz. Ko'pi bilan 4 yil kerak. Ular bizga qaysi energiyada ishlab chiqarding deb aytishadi, biz bunga tayyor bo'lishimiz kerak, deya qo'shimcha qildi davlat rahbari.

“Qayerga borsam, ular qaysi energiyadan foydalanishayotgani haqida so'rayman. Aqllilar quyosh batareyalarini qo'yib, juda katta energiya olyapti”, — dedi u.

Prezidentning ta'kidlashicha, tadbirkorlar ham mamlakatning juda katta qudrati. Ularning soni 1,5 mln nafar bo'ldi, 2030-yilgacha ularning sonini 3 mln nafarga chiqarish reja qilingan. Ular ham yashil iqtisodiyotga o'zining imkoniyatini namoyon qilib, tashabbus bilan chiqishsa, biz aytgan katta-katta marralar albatta natijasi bo'ladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbari sog'liqni saqlash nuqtai nazaridan ham [bu nom] odamlarga yengillikdir. Shuningdek, prezident suv tanqisligi, kelajakda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha salbiy ta'sirni ko'rsatish kerakligini eslatdi.

Shuningdek, u o'z nutqida mamlakatda keng o'tkaziladigan “Yashil makon” umummilliy dasturini ham tilga olib, tizimda shu vaqtgacha yo'l qo'yilgan asosiy kamchilik haqida gapirdi.

““Yashil makon”ni ham birinchi boshlaganimizda (daraxtni) ekdik, parvarishni bilmadik. Endi ekishdan oldin parvarishni, suvni o'ylaylik. Kerak bo'lsa, shunga manfaatdor xususiy qilib ekan daraxtni topib beraylik. Odamlarimiz uchun xonadon, ko'cha, mahallasi, shahrida, viloyatda, maktablarda, oliygohlarda, korxonalarda atrof-muhitni asrash bo'yicha muhit yaratishimiz kerak”, — dedi prezident.

U “Yashil makon” yo'nalishida hamma sohada “ona tabiat” degan jumlaning ma'nosiga yetish, yozuvchilar, shoirlar she'r, dostonlar yozib, kinolar chiqarilishi muhimligini, qolaversa, gazeta, radio, ijtimoiy tarmoqlarda mana shu yo'nalishni baralla gapirish orqali muhit yaratishni taklif qildi.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro standartlari.

- Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro doirada qo'yilgan birinchi qadam 1913 yilda Bern (Shveysariya)da 18 ta davlat ishtirokida "Tabiatni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazish bo'ldi, 1923 yilda esa Parijda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tdi. 1928 yilda Bryussel (Belgiya)da "Tabiatni! –
- 1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishi munosabati bilan atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT dastlab 1948 yilda "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" "Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi" ga aylantirdi. Hozirgi kunga kelib ushbu ittifoq faoliyatida dunyoning 118 mamlakatidan 636 tadan ziyod davlat va jamoatchilik fashkilotlari ishtirok etmoqda

Toza qo'llar dasturi

Prezidentning "O'zbekiston–2030 strategiyasini Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Loyihada aholi, ayniqsa yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida 2025-yil 1-maydan boshlab "Toza qo'llar" dasturi amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Dastur doirasida:

a) barcha sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalarida:

- qo'l yuvish joylarini zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash; - sanitariya-gigiyena xonalarining texnik holatini yaxshilash, yangi qurilayotgan muassasalarda ularni binoning ichki qismida joylashtirish; - yil davomida birinchi navbatda qo'l yuvish va antiseptik vositalarni xarid qilishni nazarda tutish;

b) barcha turdagi jamoat sanitariya-gigiyena xonalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlarini sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash majburiyati kiritiladi.

2025-yil davomida byudjet tashkilotlarida mazkur banddagi tadbirlar uchun zarur bo'lgan hollarda **qo'shimcha mablag'lar ajratiladi.**

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasiga bir oy muddatda ushbu badda nazarda tutilgan muassasalarda sanitariya-gigiyena holatini saqlash uchun vositalar ajratish bo'yicha normativlarni qayta ko'rib chiqish va ularning amalda bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish topshiriladi. Bir qator vazirliklar hamkorligida 2025-yil 1-avgustga qadar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ekspertlarini jalb etgan holda respublikaning barcha ijtimoiy soha muassasalarida **"2025–2028-yillarda O'zbekistonda sanitariya-gigiyena tizimini yaxshilash"** dasturini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritish vazifasi yuklatilmoqda.

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish istiqbollari

Muqobil elektr energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib borayotgan bir sharoitda quyosh elektr panellaridan foydalanish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Bunda, avvalo, muqobil energiya manbalari atmosfera ifloslanishini kamaytiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi

YASHIL IQTISODIYOT PLATFORMASI

“Яшил” иқтисодиёт мақсадлари

- ▶ “Яшил” иқтисодиётнинг асосий мақсади:
- ▶ – атропо-мухитга салбий таъсирни минималлаштиришга асосланган иқтисодий ва ижтимоий тараққиёт;
- ▶ – аҳоли учун муносиб турмуш даражасини сақлаб қолган ҳолда табиий ресурслардан самарали фойдаланиш;
- ▶ – “яшил” иқтисодиёт инсон иқтисодий фаолиятининг атропо-мухитга салбий таъсирини камайтиришга қаратилган. Шу сабабли, одамларнинг эҳтиёжларини қондириш ва атропо-мухитга зарар бермасдан ишлаб чиқаришни кўпайтириш ўртасидаги мувозанатни сақлаб қолиш ;
- ▶ – илим ўзгаришини олдини олиш ва иқлим ўзгариши натижасидаги иқтисодиёт тармоқларига бўладиган таъсирни камайтириш ва олдини олиш.

“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida o‘tkaziladigan tadbirlar ro‘yxati:

Ekologik tashabbuslar tanlovi. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik ruhini rivojlantirish maqsadida maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik tashabbuslar tanlovini o'tkazish mumkin.

Ekologik teatr. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik teatr tashkil qilish mumkin.

Ekologik viktorina. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik viktorina o'tkazish mumkin.

Ekologik sport tadbirlari. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik sport tadbirlarini o'tkazish mumkin.

Ekologik sayohatlar. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar uchun ekologik sayohatlar tashkil qilish mumkin.

Ekologik ko'rgazma. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik ko'rgazma o'tkazish mumkin.

Ekologik festival. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik festival tashkil qilish mumkin.

Ekologik konferensiya. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik konferensiya o'tkazish mumkin.

Ekologik forum. Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar o'rtasida ekologik forum tashkil qilish mumkin.



Ekologik viktorinada qanday savollar beriladi?

Ekologik viktorinada berilishi mumkin bo'lgan savollar javobi bilan:

Savol: Ekologiya nima?

Javob: Ekologiya – bu tirik organizmlarning o‘zaro ta’sirini, shuningdek, ularning atrof – muhit bilan aloqalarini o‘rganadigan fan.

Savol: "Ekologiya" atamasini birinchi bo'lib kim kiritgan?

Javob: "Ekologiya" terminini 1866 – yil nemis olimi E. Gekkel organizmlarning atrof – muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etgan.

Savol: Butunjahon atrof-muhit kuni qachon nishonlanadi?

Javob: Haryili 5 – iyun Butunjahon atrof – muhitni himoya qilish kunisifatidan nishonlanadi.

Savol: Yerning necha foizini suv qoplagan?

Javob: Taxminan 71 foizini suv tashkil qiladi.

Savol: Qaysi daraxt yozda ham, qishda ham yashil bo'lib qoladi?

Javob: Archa daraxti.

Atrof muhitni ifloslanishini to‘xtatishga qanday yordam berish kerak


Atrof-muhitning ifloslanishini to'xtatish sayyoramizni saqlab qolish va odamlarning salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Havo va suv xavfli kimyoviy moddalar bilan zaharlanadi va hech narsa qilinmasa, er o'zining go'zalligi va xilma-xilligini yo'qotadi. Ushbu maqolada biz sizga ifloslanishni to'xtatishga hissa qo'shishning ba'zi usullarini aytib beramiz.

Energiya manbasini tanlash



1

Xonadan chiqayotganda chiroqlarni va elektr jihozlarini o'chiring. Elektr energiyasini tejash uchun siz elektr jihozlarini rozetkadan uzishingiz mumkin. Yoki barcha elektr jihozlarini elektr filtriga ulang, shunda u o'chirilganda barcha elektr jihozlarini bir vaqtning o'zida o'chirib qo'ying.



2

Elektr energiyasini sezilarli darajada tejashga olib keladigan kichik o'zgarishlarni amalga oshiring. Quyidagilarni qilish tavsiya etiladi: Agar sizda suv isitgichi bo'lsa, unda siz iste'mol qiladigan barcha elektr energiyasining 14-25% talab qilinadi. Belgilangan suv isitgichi haroratini o'rnatish orqali siz ozgina elektr energiyasini tejaysiz.

- Kiyimlarni havoda quriting. Agar siz kiyimingizni elektr quritgichda emas, balki havoda quritsangiz, yillik uglerod izingizni 1000 kg ga kamaytirasiz.
- Idishlarni havoda quriting yoki sochiq bilan quriting. Idish yuvish mashinasi siz iste'mol qiladigan barcha elektr energiyasining 2,5 foizini sarflaydi. Shuning uchun siz undagi idishlarni yuvishingiz mumkin, ammo quritish tsiklidan foydalanmang.
- Energiyani tejaydigan lampalardan foydalaning. LED lampalar (ular lyuminestsent lampalarga qaraganda bardoshli va xavfsizroq) sizning uyingizni yoritish uchun sarflanadigan elektr energiyasining 75 foizini tejaydi. Bundan tashqari, ular oddiy akkor lampalarga qaraganda kamroq issiqlik hosil qiladi.



3.

Agar siz xona haroratini sozlash imkoniga ega bo'lsangiz, issiq mavsumda termostatni 25 °C ga, sovuqda esa 20 °C ga sozlang, agar siz isitish va konditsioner tizimini to'g'ri sozlasangiz, elektr energiyasini tejaysiz.


- Sovuq mavsumda siz kechasi uchun qo'shimcha adyolni olishingiz va termostatni haroratini 15 °C ga tushirishingiz mumkin.
- Issiq kunlarda konditsionerdan ko'ra fanatlardan foydalaning, chunki ikkinchisi sezilarli darajada ko'proq elektr energiyasini iste'mol qiladi.



4


Uyingizning issiqlik izolatsiyasini yaxshilang. Buning uchun deraza romlari atrofida yoriqlarni yoping yoki eski ramkalarni yangilariga almashtiring. Qishda siz maxsus vositalardan foydalanishingiz mumkin, agar sizda ikki oynali oynalar emas, balki eski uslubdagi ramkalar bo'lsa, ular qish uchun yopishtirilishi mumkin, shunda issiqlik sizning uyingizni tark etmaydi.

- Agar siz deraza romlarini o'zgartirishga qaror qilsangiz, ENERGY STAR® deb nomlangan ramkalarni qidiring. Ushbu ramkalar va oynalar ma'lum issiqlik tejash talablariga javob beradi.



5

Muqobil energiya manbalarini ko'rib chiqing. Agar siz o'z uyingizda yashasangiz yoki uni qurmoqchi bo'lsangiz, quyosh panellari yoki shamol turbinasini o'rnatish imkoniyatini o'rganing.



6

Boshqa energiya manbaiga o'tishni o'ylab ko'ring. Bu qayta tiklanmaydigan manbadan (masalan, gaz) qayta tiklanadigan manbaga (elektr) o'tishni anglatadi. Aytaylik, agar siz o'zingizning turar joyingizni loyihalashtirayotgan bo'lsangiz, gaz qozon o'rniga elektr qozon o'rnatishni o'ylab ko'ring. Shahar kvartirasida, agar elektr simlari imkon bersa, gaz pechkasi bo'lgan pechkani elektr pechkasi bilan almashtirish.

Tabiatni asrash

Har kuni yer yuzidan bittadan jonivor yoki o'simlik turi yoqolib bormoqda. Bugungi kunda yer yuzida yashiyotgan barcha tirik organizmlarning faqat o'ndan bir qismigina fan tomonidan o'rganilib, kashf etilganiga e'tiborni qaratsak, yo'qolib borayotgan jonzorlarning kattagina qismi olimlar tomonidan hanuz o'rganilmagani ma'lum bo'ladi. Tadqidodchilarning hisoblariga ko'ra, yana 30 yildan keyin sayyomizda yashiyotgan barcha qush turlarining o'ttiz foizdan ko'prog'i, sutemizuvchilarning uchdan ikki qismi butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan.

Ayni daqiqalarda inson foydasiga xizmat qilayotgan narsalar tabiyatdagi omonat muvozanatni buzib yuborishi mumkin. Odamlar o'rmonlarni kesishi, cho'llarni haydashi, botqoqliklarni quritishi oqibatida noyob o'simliklar yo'q bo'lib bormoqda. Ko'plab noyob jonivor va o'simliklar bugun himoyaga muhtojdir. Mana shunday turlar maxsus nazorat ostiga olinib, ular yashiyotgan hududlar qo'riqxonalariga aylantirilgan, ularni ovlash, yo'q qilish taqiqlanadi. Aynan mana shunday yo'l bilan ayrim hayvonlar qirilib ketishdan saqlab qolishgan. 1964 – yili Xalqaro tabiyatni asrash ittifoqi birinchi Qizil kitobni chop etgan. Bu kitobga barcha noyob va yo'qolib ketish arafasida turgan jonivorlar, o'simliklar kiritilgan. Shundan buyon dunyoning ko'plab mamlakatlar o'z qizil kitoblarini chop etib keladilar. Bu kitoblarga kiritilgan o'simlik va jonivorlarni asrash uchun javobgarlik, yo'qotishni taqiqlash maxsus qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Biz jonzorlarga mehr va ehtiyotkorlik bilan munosbatda bo'lmasak, olimlarning barcha harakatlari chipakka chiqishi mumkin. Chunki tabiyat haqidagi birorta kitob, birorta toza havo, shaffof suv, qushlar sayrog'iga to'la o'rmon bosa olmaydi. Bu haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik kerak.

Kitob ko'rgazma uchun mavzular

1. Tabiyatni asrash – barchamizning burchimiz.
2. Hayot bog'larining bog'boniga aylanaylik.
3. Tabiyat bebaho boylikkina emas kelajagimiz, taqdirimiz hamdir.
4. Ekologik madaniyat – sog'lom hayot asosi
5. “Yashil makon” – musaffo hayot yo'li

Mundarija

Soʻz boshi.....	3
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.....	4
Prezident 2025-yil nega “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot” yili deb nomlanganiga izoh berdi	21
Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro standartlari.....	22
“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish istiqbollari	23
“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida oʻtkaziladigan tadbirlar roʻyxati:	24
Ekologik viktorinada qanday savollar beriladi?.....	25
Energiya manbasini tanlash.....	26
Tabiatni asrash	30
Kitob koʻrgazma uchun mavzular	30
Foydalanilgan adabiyotlar	32

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilova, R. X. Ekologiya / R. X. Xalilova. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 296 b.
2. Vologdina, Ya, V. Jonli tabiyat (Bolalar uchun ilmiy – ommabop nashr) / Ya, V, Vologdina. – Toshkent: “Davr nashriyoti” MCHJ, 2013. – 96 b.
3. Internet to‘plamlari.

Qo'shko'pir tuman Axborot – kutubxona markazi



Ish vaqti:

Soat: 8:00 dan 20:00 gacha

Shanba – Yakshanba 10:00 dan 17:00 gacha

Dam olish kunisiz

Har oyning oxirgi sanasi

“Tozalik” kuni o‘tkaziladi.

Manzil: Xorazm viloyat Qo'shko'pir tumani Beruniy ko'chasi 10 – A uy

E – mail: kushkupirtakm@gmail.com

Internet manzili: <https://kushkupirtakm.mobirisesite.com/>